



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
davlat va huquq asoslari
fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 8-sinflar uchun
I yarim yillik

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf davlat va huquq asoslari
fanidan I yarim yillik taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Shaxs. (Loyiha ishining baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	Shaxs	1		
3.	Jamiyat	1		
4.	Davlat	1		
5.	Davlat	1		
6.	Davlat funksiyasi	1		
7.	Davlat shakllari	1		
8.	1-Nazorat ishi	1		
9.	Axloq va huquq	1		
10.	Huquq manbalari	1		
11.	Huquq manbalari	1		
12.	Huquq normasi	1		
13.	Huquq tarmoqlari (sohalari)	1		
14.	Huquqiy munosabatlar	1		
15.	2-Nazorat ishi	1		
16.	Ijodiy faoliyat.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Shaxs. (Loyiha ishining baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda ayni paytda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o'zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji barcha fanlar uchun yuksak mas'uliyati, huquq normalarini hayotda mustaqil qo'llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o'rgatish, mustaqil o'qish, izlanish, tarixiy, ma'naviy, huquqiy manbalarni o'rganish asosida to'laqonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo'lish, mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yurtimizda barcha sohalarida, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlari, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo'lishiga, o'zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish.

Rivojlantiruvchi: mazkur huquq va erkinliklarni yetarli darajada himoya qila olish madaniyatini shakllantirish davlat va huquq asoslari fani zimmasiga tushishi xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiyasi:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishonтира bilish; o'rganilgan mavzuga oid umum tomonidan qabul qilingan atamalarning mazmunini bilish.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

“Odam” tushunchasi biologik tushuncha bo'lib, unga jonli tabiatning bir elementi sifatida qaraladi. “Inson” tushunchasi esa ijtimoiy tushuncha bo'lib, undan kundalik so'zlashuvda keng foydalaniladi. Shuningdek, o'zaro suhbatlarda “kishi”, “kimsa” so'zlarini ham qo'llab

turamiz. Biroq huquqshunoslik fanida hamda yuridik adabiyotlarda “odam”, “inson”, “kishi” yoki “kimsa” soʻzlaridan emas, balki aynan “shaxs” tushunchasidan foydalaniladi. “Shaxs” tushunchasi “inson” tushunchasining yuksak koʻrinishi, oliy maqomidir. Shu bilan birga, “odam” yoki “inson” tushunchalariga huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida qaralmaydi. Ular shaxs maqomidan tashqari holatda huquqiy munosabatlarning toʻla ishtirokchisi boʻla olmaydi.

Shaxs — ongli ravishda oʻz faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega boʻlgan, huquqiy munosabat ishtirokchisi sifatida muayyan huquq va majburiyatlarga ega inson.

Xoʻsh, inson qanday qilib jamiyatga hissa qoʻshadigan shaxsga aylanadi?

Qanday insonni biz buyuk shaxs deb atashimiz mumkin?

Shaxs ham, albatta, odam, inson, individ. Lekin unda tabiiy xususiyatlar, ehtiyojlar, his-hayajon, tuygʻulardan tashqari, bir qadar ahamiyatliroq boʻlgan jihatlar ham mavjud. Masalan, shaxs uchun qator qadriyatlar muhim. Bu qadriyatlarga misol qilib oʻz uyi — oilasi, mamlakati — vatani, mahallasi — qoʻni-qoʻshnisi, oʻquv dargohi — sinfdoshlari yoki kursdoshlari, ishxonasi — hamkasblari kabilarni keltirish mumkin. Bu qadriyatlarga erishish, ularni saqlash va eʼzozlash uning hayotining maqsadi, mazmuni boʻlib xizmat qiladi. Shaxs faqat oʻz-oʻzi bilan ovora emas. U atrofdagilar, hayot, mahalla, mamlakat, vatan haqida doimo oʻylaydi, qaygʻuradi, gʻamxoʻrlik qiladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida oila, maktab, qoʻni-qoʻshni, mahalla va doʻstlarning taʼsiri katta. Biz Abu Nasr Forobiy, Burhoniddin Margʻinoniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizni tilga olganimizda ularni buyuk shaxslar deb ulugʻlashimiz ham shaxs tushunchasiga eʼtibor qaratishni talab etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar



Mehnat munosabatlari.
Mulkiy munosabatlar v.b.

Maʼnaviy munosabatlar



Bilim olishga oid munosabatlar.
Tarixiy meros, ilmiy va texnik yutuqlardan foydalanish munosabatlari v.b.

Siyosiy munosabatlar



Davlat organlariga murojaat qilish bilan bogʻliq munosabatlar. Turli jamoat birlashmalari bilan bogʻliq munosabatlar v.b.

Huquqiy munosabatlar



Shartnomaviy munosabatlar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Rasmlarda tasvirlangan odamlar jismoniy, moddiy, aqliy, maʼnaviy jihatlari bilan bir-biridan qanchalik farq qiladi deb oʻylaysiz?
2. Sizning fikringizcha, rasmlardagi odamlarning qanday umumiy jihatlari bor?
3. “Odam”, “inson” va “shaxs” tushunchalari bir-biridan oʻzaro farq qiladimi?

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Shaxs

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda ayni paytda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o'zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji barcha fanlar uchun yuksak mas'uliyati, huquq normalarini hayotda mustaqil qo'llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o'rgatish, mustaqil o'qish, izlanish, tarixiy, ma'naviy, huquqiy manbalarni o'rganish asosida to'laonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo'lish, mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yurtimizda barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlari, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo'lishiga, o'zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish.

Rivojlantiruvchi: mazkur huquq va erkinliklarni yetarli darajada himoya qila olish madaniyatini shakllantirish davlat va huquq asoslari fani zimmasiga tushishi xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

Mavjud axborot manbalaridan foydalana olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

ta'lim muassasida qabul qilingan odob-axloq qidalariga rioya qilish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Shaxs va davlat munosabatlarining huquqiy asoslari Shaxs va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlar bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Davlat tomonidan mustahkamlab qo'yilgan shaxsiy huquq va erkinliklar daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Davlatning asosiy maqsadi fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qilishdir. Jumladan, davlatning eng dastlabki vazifasi shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy,

madaniy-ma'rifiy darajasini oshirishga yordam berish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, tinchlikni mustahkamlash hisoblanadi. Jismoniy va yuridik shaxs Huquqshunoslik fanida shaxs tushunchasi ikki ma'noda, ya'ni jismoniy va yuridik shaxs sifatida ifodalanadi. Xo'sh, jismoniy va yuridik shaxsning o'zaro farqli jihatlari nimalardan iborat? Javob topish uchun, avvalo, mazkur ikki tushunchaning ta'riflariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.



Alisher dars mashg'uloti davomida ulgurji do'konlar jismoniy shaxslar tomonidan yuritilishini, ular hech qanday tashkilot yoki korxona bo'la olmasligini tushuntirib berdi. Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar tashkilot emas, ular jismoniy shaxslar ekanligini isbotlashga harakat qildi. Sizningcha, Alisherning fikri to'g'rimi? Uning fikriga nima uchun qo'shilish yoki qo'shilmaslik lozim?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Shaxs va jamiyat o'zaro qanday munosabatlarga kirishishi mumkin?
2. Siz qachon o'zingizni yetuk shaxs deb hisoblay olasiz?
3. Shaxs uchun qadriyatlarning qanday ahamiyati bor?
4. Shaxs uchun e'tiborli bo'lgan qadriyatlarga misollar keltiring.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat huquq fanidan 8-sinf
I yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**